

«MAKTABGACHA TA'LIM KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: KORIJ TAJRIBASI»

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

22.11.2023 yil

Ilmiy anjuman dasturiy qo‘mitasi

- | | | | |
|----|-----------------|---|--|
| 1. | O.X. Xamidov | – | Universitet rektori, rais. |
| 2. | T.H. Rasulov | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini. |
| 3. | F.N. Nurulloyev | – | IT va IFR departamenti boshlig‘i, a‘zo. |
| 4. | A.R. Hamroyev | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, p.f.d. (DSc), a‘zo. |
| 5. | N.S. Hakimova | – | Maktabgacha ta‘lim kafedrası dotsenti, p.f.b.f.d.(PhD), a‘zo. |
| 6. | A.Sh. Husenova | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, p.f.b.f.d.(PhD), a‘zo. |
| 7. | M.B. Sharipova | – | Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, kotib. |

Ilmiy anjuman tashkiliy qo‘mitasi

- | | | | |
|-----|----------------|---|--|
| 1. | T.H.Rasulov | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais. |
| 2. | O‘.U.Rashidov | – | Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo. |
| 3. | F.N.Nurulloyev | – | IT va IFR departamenti boshlig‘i, a‘zo. |
| 4. | A.R.Hamroyev | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, p.f.d. (DSc), a‘zo. |
| 5. | R.A.Qo‘ldoshev | – | Maktabgacha ta‘lim kafedrası mudiri, p.f.b.f.d.(PhD), a‘zo. |
| 6. | M.M.Nigmatova | – | Maktabgacha ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo. |
| 7. | Sh.Sh.Nizomova | – | Maktabgacha ta‘lim kafedrası dotsenti, f.f.b.f.d.(PhD), a‘zo. |
| 8. | N.N.Hamroyeva | – | Maktabgacha ta‘lim kafedrası dotsenti, f.f.b.f.d.(PhD), a‘zo. |
| 9. | N.S.Hakimova | – | Maktabgacha ta‘lim kafedrası dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD), a‘zo. |
| 10. | A.Sh.Husenova | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, p.f.b.f.d.(PhD), a‘zo. |
| 11. | M.B.Sharipova | – | Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, kotib. |

не умеют читать, писать и рисовать, неведомы тайны мира. Считалось, что произведения, которые читают, рассказывают и рассказывают взрослые, будут иметь важное воспитательное значение для детей этого периода.

Ключивые слова: детская литература, фольклор, МТТ, сказочничество, выразительное чтение, чтение

Annotation: *The role of folklore in the training of children's literature in the system of preschool education is absurd. Detskim chteniem v osnonom zanimayutsya roditeli, babushki i dedushki, obshchestvennye deyateli i pedagogi. Children of preschool age, who can't read, write and write, do not know secrets. Schitalos, chto proizvedeniya kotorye chitayut, rasskazyvayut and rasskazyvayut vzroslye, budut imet vajnoe vospitatelnoe znachenie dlya detey etogo perioda.*

Key words: *children's literature, folklore, MTT, skazochnichestvo, vyrazitelnoe chtenie, chtenie*

Xalq og'zaki ijodida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari keng qamrovli bo'lib, o'z zamirida tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi; do'st birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning ta'rifi, yaxshi va yomon so'zning oqibati, halollik, to'g'rilik, olijanoblik tarbiyasi, adolat, insof va insofsizlik, og'a-inichilik va qon-qardoshchilikning ahamiyati, botirlik va qo'rqqoqlik, odob-odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik kabi sifatlar talqin qilinadi.

O'zbek olimi M.Haydarovning yozishicha: "Xalq og'zaki ijodi namunalaridagi odob-axloq, ta'lim-tarbiya borasidagi pandnomalar bag'oyat hayotiy, xalqchil va ibratlidir. Xususan, an'anaviy xalq dostonlari va ertaklari, qo'shiqlar va maqollar-odobnoma darslari ekanligini, folklorning boshqa katta-kichik janrlari boshdan-oyoq pandnomaligini unutmasligimiz kerak". Xalq pedagogikasining sharqona an'analari, oilaviy-maishiy yo'nalishlari, o'ziga xosligi, ommaviy bayram-sayllar, marosimlar, urf-odatlar va udumlarda ifodalanishi o'sib kelayotgan yosh avlod tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar sirasiga kiradi. Folklorshunos olim S. Turayev ta'kidlashicha: "Xalq og'zaki ijodida hayotning, tafakkurning, odob-axloq, ta'lim-tarbiyaning hamma jabhasini, barcha muammolarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi"¹. Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodida inson qadr-qimmat va sha'nini ulug'lovchi, ma'naviy kamolotini belgilovchi omillar, imon-e'tiqodining butunligi, vatanparvarlik, do'st-birodarlik, yaxshilik, ezgulik, ahillik sahifalari rang-barangdir. Bu sahifalarning har biri yosh avlod uchun odobnoma, ibratnoma deb baholanishga tamomila haqlidir.

Bugungi kunda yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirrali ekanligini unutmasligimiz kerak. Demak, qanday odamni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur. Bunda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni tarkib toptirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu jamiyatning komil insonni tarbiyalashdek maqsadiga mos kelishi kerak.

Azaldan, ota-bobolarimiz davridan yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga juda katta e'tibor berilgan. Buni biz ular tomonidan farzandlariga qo'yib kelgan quyidagi talablarida yanada yaqqol ko'ramiz: to'g'ri o'yla, to'g'ri so'yla; sengaishonib topshirilgan vazifaga mas'uliyat bilan yondash; bir soat ichida uddalashing lozim bo'lgan ishingni darhol bajar, keyinga qoldirma; burchingni va'da bergan vaqtda ado et, va'dasizlik qilma; yaxshi o'qi; o'zingga mos hunar tanla; hayotda tadbirkor bo'l; qo'pol so'zli bo'lma, xushmuomalali bo'l; o'z ishingda, o'z so'zingda qattiq tur. Bu kabi ibratli gaplar qattiq, ammo to'g'ri talab. Agar kimda bunday xususiyatlar bo'lsa, u hech qachon hayotda qiynalmaydi.

Xalq og'zaki ijodi qamrovi nihoyatda keng, serqirra va serjilo tushuncha bo'lib, u shu xalqning butun davrini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga ota-bobolarimiz uzoq moziyda yaratgan va ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, saqlab kelgan ota-meros, Sharq xalqlarining boy va betakror odobnomasi hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida yashab keldi. Avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida, jismoniy barkamolligida hal qiluvchi rol o'ynadi. Xalq og'zaki ijodi namunalarining asosiy

maqsadi yosh avlodni yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalashdir. Xalq og‘zaki ijodining har bir turida insoniy qadriyatlar va vatanparvarlik, do‘stlik va ahillik, yaxshilikning yomonlik ustidan g‘alaba qozonishi, halollik, botirlik, odoblilik, saxiylik, vafo, or-nomus, tejamkorlik, mas’uliyat, sog‘lom tarbiya va tozalik, tabiat va undagi barcha ne’matlarni e‘zozlash kabi masalalar alohida yoritib berilgan. Ko‘rib o‘tganimizdek bolalar adabiyoti o‘ziga xos xususiyatlari bilan katllar adabiyotidan farq qiladi. Bolalaryozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Shu orqali kichkintoylarni olg‘a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur sevisga yordam beradi. Bolalar adabiyotida didaktika ohangi ustun turadi. Bolalar adabiyotining o‘ziga xos qonuniyatlari bor, agar bu fanbo‘limlarga ajratib o‘rganilmas ekan, pala-partishlik, turli tushunmovchilik kelib chiqishi tabiiy.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. – T.: Cho‘lpon, 2006.
3. Adabiyot va san‘at. Adabiy tanqidiy maqolalar, o‘ylar, munozaralar. T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1987.
4. Barakayev R. Jonajonim she‘riyat. (80-yillar o‘zbek bolalar she‘riyati haqida ba‘zi qaydlar). – Toshkent: Cho‘lpon, 1997.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: Sharq. 2005.

KATTA GURUH BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING AHAMIYATI

Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna

Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta‘lim kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Bolalar adabiyoti — bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmuidir. Bularning asosiy qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Maqolada badiiy adabiyotning ildizi bo‘lmish xalq og‘zaki ijodining bolalarni tabiat bilan tanishtirishdagi ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, bolalar folklori, tabiat, MTT, nutq o‘stirish, maqol, topishmoq.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim sohasiga har tomonlama shakllangan barkamol avlodni yetishtirib berishning asosiy bo‘g‘ini sifatida qaralishi hech kimga sir emas. Ayni vaqtda nafaqat yurtimizda, balki jahon mamalakatlari doirasida maktabgacha yoshdagi bolalar ta‘lim-tarbiyasi hamda ularning mustaqil fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar Germaniya, Fransiya, Janubiy Korea, Yaponiya mamlakatlar tajribasida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda tafakkur erkinligi, mustaqil fikrlashni shakllantirib borishga alohida diqqat qaratadilar. Bu esa o‘z navbatida maktabgacha yoshdagi bolalarning har jihatdan shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi musaqil mulohaza yuritish jarayonini rivojlantirib borishga xizmat qiladigan yangi innovatsion usullarni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish, bolalarni maktab ta‘limiga sifatli tayyorlash, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun yangi variativ dasturlarini qo‘llash kabi zarurlarni keltirib chiqaradi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish maktabgacha ta‘lim tizimi oldida turgan asosiy vazifadir. Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirar ekanmiz, avvalo, pedagogika fanining asoschilari aytib o‘tgan fikrlarga asoslanamiz. G‘arbning ilg‘or pedagoglaridan Komenskiy bolalarga beriladigan bilim hayotiylikka va ko‘rgazmalilikka asoslanishi kerak, degan edi. Bolalarga tabiat orqali beriladigan

bilimlar turlicha metod va usullar bilan olib boriladi va ekskursiya, sayr, ta'limiy oyinlar orqali mustahkamlanib chuqurlashtiriladi.

Bolalar yoshiga mos jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berishda bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bo'lishi bilan birga ilmiy aniq bo'lishi kerak. Masalan: o'simlikning yorug'likka, suvga, issiqlikka bo'lgan ehtiyoji. Bolalarga beriladigan bilimlarning barchasi ko'rgazma asosida berilishi shart.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylilik prinsipiga rioya qilinadi. Beriladigan tabiat haqidagi bilimlar ilmiy bo'lishi bilan birga bolalar tushunadigan bo'lishi zarur. Masalan: Erta bahorda kunlar isiydi. Kunlar isigani sababli daraxtlar kurtak chiqaradi. Osmon ko'm-ko'k tus oldi, biz endi bog'cha yer maydonchasiga ekin ekishimiz mumkin. Mana shunday oddiy misollar orqali bolalar aniq va ilmiy asosda tushunchalarga ega bo'ladilar. Biz bolalarga bilim berishda ularning avvalgi bilimlariga tayanamiz. Shundagina ular yangi bilimni chuqur o'zlashtirib oladilar. Bolalarga beriladigan bilim ilmiy, bolalar yoshiga mos bo'lsa-yu, ular ko'rgazmasiz bo'lsa, bolalar yaxshi tushunmaydilar. Y.A.Komenskiy shunday degan: "Avval sezgilarda bo'lmagan narsa, intellektda ham bo'lmaydi". Shundan kelib chiqib, hissiy tajribani bilish va o'rganish asosida quyidagi ko'rgazmalilik prinsipini asoslab berdi.

Bolalar adabiyoti va bolalar folklori namunalari MTT tarbiyalanuvchilarini tabiat bilan tanishtiruvchi asosiy vositadir. O'zbek bolalarining sevimli shoiri Anvar Obidjonning "Ajoyibxona qoplari" nomli she'ri ham bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga undovchi asarlardan biridir. Unda asosan hayvonot bog'ida yashovchi qoplonning tilidan unga xos bo'lgan sifatlar ochib berilgan. Mashg'ulotga tayyorlanish davomida tarbiyachi hayvonot bog'ida qafasda turgan qoplonning tasviri tushurilgan suratni topib tasvirini ekranga yoki doskachaga qo'yib qo'yadi. Bolalarga she'r o'qib berilgach, ularning tuyg'ulari sovimasdan uning muhokamasiga o'tilib, bolalarning diqqat e'tibori asarning dastlabki ikki misrasiga qaratiladi va qaytadan o'qib beriladi: "Bobom tutqun o'tmagan, Tug'ilganman men ozod". Ushbu she'rdagi bolalarning diqqatini qaratish kerak bo'lgan yana bir to'rtlik bu uning oxirgi satrlaridir: "Men zotimni faxr-la eslarman har nafasda Zo'rdirmanki, xavfsirab – saqlashyapti qafasda". Tarbiyachi bu satrlarni alohida ajratib yana bir marta bolalarga o'qib bergani maqsadga muvofiq. So'ng bolalardan bu misralarni qanday tushunganliklarini so'raydi. Bunda tarbiyachi chug'ur-chug'ur qilib aytilgan javoblar orasidan haqiqatga yaqinini ajratib olishni unutmasligi lozim. Ya'ni qoplonlar hech qachon o'z zotiga, qoplonligiga hiyonat qilmaydi. Ayiq yoki maymun bo'lmagani kabi ulardagi hislatlarni ham ola olmaydi. O'zligini, kimlarning avlodidan ekanligini hech qachon unutmaydi. Oxirgi ikki misrada gap kimga qaratilgani haqida ham bolalar biroz o'ylab ko'rishlari kerak. Birinchi bolalarning o'zlari bilganlaricha sharhlashsin avval, keyin tarbiyachi, zo'r, qudratli, yovvoyi hayvonlar bo'ysunmas bo'lganliklari uchun ham odamlar ulardan xavfsiraydi, qafasda saqlaydi kabi tushunchalarni bolalarga tarbiyachining o'zi singdiradi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda muhim vositalardan yana biri bu xalq topishmoqlaridir. Qadimda "top-top", "topmacha", "ushuk" kabi nomlar bilan atalgan ushbu kichik janr namunalarining katta qismi tabiat, tabiat hodisalari haqidadir. Biz MTTda har bir mashg'ulotimizni ob-havo haqidagi ma'lumotlar bilan boshlaymiz. Shu o'rinda ushbu topishmoqni bolalar hukmiga havola etish ularning ziyrakligini oshiradi:

*Ko'zga ko'rinmas,
Qo'lga tutilmas.
(Havo)*

*Osmonda uchar,
Qanoti yo'q.
(Havo)*

Shuningdek, quyida keltiriladigan topishmoq ham bolalarni bulut haqidagi tasavvurlarini mukammallashtirishga xizmat qiladi:

*Beshadan chiqqan besh biya,
Beshovi ham qulunli,
Qulunlari qul ola,
Quyruqlari gaz ola.
(Bulut)*

*Qora biyam qalt etdi,
Qovurgasi yalt etdi.
(Bulut, yashin)*

Shuningdek, momaqaldir, yomg'ir, yashin haqidagi topishmoqlar ham borki, ular bolalarning tabiat hodisalari yuzasidan tasavvurlarini mukammallashtirishga xizmat qiladi. Quyidagi topishmoqning esa javobi ko'p predmetli bo'lib, uchta tabiat hodisalarini o'zida aks ettiradi:
Biri sepadi,

*Biri ichadi,
Biri o'sadi. (Yomg'ir, yer, o'simlik)*

Xalq og'zaki ijodining yana bir kichik janri borki, bu xalq donishmandligi namunasi bo'lgan maqollardir. Maqollarni hayot qomusi, xalq og'zaki ijodi ensiklopediyasi, o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi. Xalq maqollari orasida tabiat hodisalari haqidagi maqollar ham borki, ular katta guruh bolalarining tabiat haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Masalan, "*Yozgi harakat - kuzgi barakat*" maqoli borki, u bolalarni nafaqat yil fasllari bilan tanishtiradi, balki mehnatsevarlikka ham o'rgatadi. Yoki bayram nomlari qatnashgan quyidagi maqolni guruhda tahlil qilishda ham bolalarga navro'z bayramini qaysi faslda nishonlashimiz, bu fasldan keyin qaysi fasl kelishi bilan bog'liq savollar berilsa, maqsadga muvofiq:

- *Navro'zdan so'ng qish bo'lmas.*

Biz yuqorida ko'p predmetli topishmoqlar haqida yozgan edik, topishmoqning javobi ikki va undan ortiq tushunchalarni ifodalasa, ko'p predmetli topishmoq deyiladi. Ammo maqollarda topishmoqning javobi kabi yashiringan tushuncha yo'q, biroq uning kichkinagina matnida bir nechta tabiat bilan bog'liq tushunchalar kelishi mumkin. Jumladan, quyidagi maqolda "iliq, sovuq, qish va yoz" kabi 4 ta tushuncha keltirilgan: *Ilib-ilib, yoz bo'lar,*

Sovib-sovib, qish bo'lar.

Biz kichik guruhlarda maqolni yodlatishimiz mumkin, katta guruhga kelib esa bemalol maqollarni tahlil etishimiz mumkin. Quyidagi maqol tahlili esa bevosita bolajonlarning salomatligi bilan bog'liq bo'ladi: "*Soyda yotma, sel olar, Qirda yotma, yel olar*", "*Toza havo — dardga davo*". Ko'rinyaptiki, tabiat haqidagi maqollarimiz tarbiyachilar uchun nafaqat bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi manba, balki ularning salomatligi uchun muhim maslahatlarni o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan maqol va topishmoqlar mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, tabiat haqidagi maqol va topishmoqlarni bitta narsa birlashtirib o'tiradi. Bu ham bo'lsa yil fasllaridir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Низомиддиновна ҳ. н. фатик мулоқот турлари ва илтифот ҳақида //boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – т. 2. – №. 2. – с. 27-31.
2. hamroyeva n. n. ona tili–maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini kengaytirish vositasi isfatida //научный фокус. – 2023. – т. 1. – №. 2. – с. 1050-1055.
3. hamroyeva n. maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda kognitiv rivojlanishning xususiyatlari //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – т. 42. – №. 42.
4. ражабова и. х., шукурова м. у. к. словесное воздействие как коммуникативные способности учителя //academy. – 2020. – №. 3 (54). – с. 90-92.
5. hamidovna r. i. et al. maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirish //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1414-1419.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI.....	3
O.X. Xamidov. MAKTABGACHA TA’LIM: MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.....	3
1 – SEKTOR: MAKTABGACHA TA’LIMDA KLASSTERLARNI TASHKIL ETISH: MUAMMO VA YECHIM	5
Azimov Yunus Yusupovich. MAKTABGACHA TA’LIM KLASSTERINI TASHKIL ETISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	5
Rafiyeva Olima Abduraufovna. MAKTABGACHA TA’LIM — UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINING POYDEVORI	7
Bozorova Saodat Sobirjonovna. MAKTABGACHA TA’LIM- ERTANGI KUNGA ZAMIN..	10
Бабаева Шоира Баймурадовна. ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.	12
Chudakova Vira Petrovna. A creative approach and foreign experience in implementing the program “Managerial competence of managers in developing the psychological readiness of teachers for innovation activity” and “developing their competitiveness” in the context of improving the management system of preschool education	16
Жумашева Гулнара Хамидуллаевна, Аймбетова Даметкен Максетовна. ИГРА КАК ВЕДУЩАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ	23
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, Хакимова Наргиза Сунпановна. ОРГАНИЗАЦИЯ КЛАСТЕРОВ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ	27
2 – SEKTOR: MAKTABGACHA TA’LIM VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB INTEGRATSIYASI ISTIQBOLLARI	32
Nizomova Shoxista Shodiyevna. BADIY ADABIYOTNING MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA	32
Shoxista Shodiyevna Nizomova. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALAR ADABIYOTINI O‘QITISHDA XALQ O‘ZAKI IJODINING O‘RNI.....	33
Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna. KATTA GURUH BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING AHAMIYATI	35
Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna, Fayzulloyeva Zulfizar Nutfillo qizi. MAKTABGACHA TA’LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI	38
Хамраева Нигора Абдуллаевна. ПРЕДМЕТ И ЗАДАЧИ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ.	40
Shodiyeva Moxiniso Baxodirovna. KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI TOVUSHLARINI TALAFFUZ QILISHGA O‘RGATISH.....	42
Shomurodova Dilnura. MAKTABGACHA TA’LIMDA XALQ DOSTONLARNI O‘RGATISHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY AHAMIYATI.....	43
Mehriddinova Laylo Mexriddin qizi. YOSH AVLODNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING DIDAKTIK AHAMIYATI	46
Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna. “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAIIK- BIIY XUSUSIYATLARI.....	48
Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna. “ALPOMISH” EPOSINING QADIMIYLLIGI VA AN’ANAVIYLLIGI.....	51
Firuz NURULLOYEV, Shonazar G‘AYBULLAYEV. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIMI SIFATINI INNOVATSION BOSHQARISH MEXANIZMLARI	53
Axmedova Dildora Qudratilloyevna. MAKTABGACHA TA’LIM VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB INTEGRATSIYASI ISTIQBOLLARI	55
Saidova Nodira Mustakimovna. “AVESTO” TADQIQIDA RAHIM VOHIDOV MAHORATI57	